

O‘YIN -BOLA FAOLYATIDAGI MOHIYATI VA O‘ZIGA XOSLIGI

Qo‘qon universiteti
maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 2-24 guruh
talabasi Xusanova Zeboxon Azimjon qizi
zeboxusanova28@gmail.com

Annotatsiya

O‘yin – bolaning tabiiy ehtiyojlaridan biri bo‘lib, u nafaqat vaqt o‘tkazish uchun vosita, balki ta‘lim olish va shaxsiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O‘yin orqali bola atrof-muhitni o‘rganadi, yangi bilimlarni o‘zlashtiradi, muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda mustaqil fikrlashni o‘rganadi. Pedagogik yondashuvlarga ko‘ra, bolalar uchun bilim berish jarayoni imkon qadar erkin va qiziqarli shaklda tashkil etilishi lozim. Shu sababli o‘yin metodlari ta‘lim jarayonida muhim didaktik vosita sifatida keng qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar: Didaktik o‘yinlar, “men”konsepsiyasi, faolyat, mustaqillik, dunyoqarash, qobilyat

Kirish

O‘yinning didaktik maqsadi – bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka, ko‘nikmalarni qo‘llash, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘yinning tarbiyaviy maqsadi - mustaqillik, irodani tarbiyalash, ma'naviy estetik va dunyoqarashini shakllantirishda hamkorlikni, jamoaga kirib keta olishni, birdamlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi maqsadi - diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, solishtirish, o‘xshashni toppish, xayol, ijodiy qobiliyat, mashg‘ulot faoliyatini samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Ijtimoiylashuv maqsadi – jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinishi, ehtirolarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish va muloqatga o'rgatishni nazarda tutadi. (1. “O‘ZBEKISTONDA ILM-FANNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022 yil 30 noyabr | scientists.uz. Nigora Safarova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Gulshan Abdullayeva BuDUPI 2-kurs magistranti <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337905>)

Bolalik insonning eng muhim taraqqiyot bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda bola tafakkuri, xulq-atvori, bilish qobiliyatlari va ijtimoiy hayotga bo‘lgan munosabati shakllanadi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning o‘rganish jarayoni qanchalik tabiiy va qiziqarli bo‘lsa, ularning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu sababli, maktabgacha ta‘lim va boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘yin metodlari muhim o‘rin tutadi. O‘yin metodining ta‘lim jarayonidagi o‘rni pedagoglar tomonidan uzoq yillardan buyon o‘rganib kelinadi. Bola o‘yin davomida dunyoni kashf etadi, ijtimoiy muhitni tushunib yetadi hamda real hayotga tayyorgarlik ko‘radi. O‘yin bolaning rivojlanishiga quyidagi yo‘nalishlarda ta‘sir ko‘rsatadi. (2. European science international conference: STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Sobirova Nargiza Esanovna Quvasoy pedagogika kolleji maxsus fan o‘qituvchisi).

O‘yin bu shunchaki, vaqt o‘tkazish uchun emas balki, o‘yin orqali bolaga biz ta‘lim, tarbiya, madaniyat, ma‘naviyat va qadriyatlarimizni o‘ragatish hisoblanadi. O‘yin jarayonida bola hayoliy vaziyatlar yaratish orqali real hayotda hali bilmagan narsalarini, ishlarini harakatlar orqali amalga oshiradi va bu uning shaxsiy “men”ni shakllanishiga yordam beradi. Bolalik davrida ushbu faoliyat bolaning yangi bilim o‘rganishiga, balki yangi muhitga moslashish uchun zamin yaratadi.

O‘yin jarayonida bola tashqi dunyoni, balki o‘zining his-tuyg‘ularini, qo‘rquvlarini va orzularini ham ifoda etadi, bu esa tarbiyachi uchun bolaning ichki dunyosini tushunishda eng samarali diagnostik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan o‘yin faoliyati bolaning quyidagi jihatlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi:

aqliy (fikrlash,
tafakkur, diqqat, xotira, tasavvur);
ijtimoiy (hamkorlik, muloqot, o‘zaro yordam);
jismoniy (harakat koordinatsiyasi, reflekslar);
hissiy (his-tuyg‘ularni ifodalash, o‘zini boshqarish).

Shunday qilib, o‘yin faoliyati bolani har tomonlama rivojlantirish uchun eng tabiiy va samarali pedagogik vositadir. Ta‘limiy o‘yinlarning turlari va ularning vazifalari.

Ta‘limiy o‘yinlar maqsadiga ko‘ra bir nechta turlarga ajratiladi:

1. Didaktik o‘yinlar – bu o‘quv materiallarini o‘yin shaklida o‘zlashtirishga xizmat qiladi (masalan, “Rangni top”, “Shaklni tanla”, “So‘zni davom ettir”).
2. Rolli o‘yinlar – bolalar hayotdagi turli kasblar va rollarni o‘ynash orqali ijtimoiy tajriba orttiradilar (“Shifokor va bemor”, “Do‘konchi va xaridor”).

3. Harakatli o'yinlar–jismoniy rivojlanish, muvofiqlashtirish va tezkorlikni oshiradi (“Kim tezroq?”, “Qo'lni top”).

4. Stol o'yinlari va konstruktorlik o'yinlari–tafakkur, muammoli fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi (“Pazl yig'amiz”, “Konstruktor yasaymiz”).

5. Axborot texnologiyalariga asoslangan o'yinlar–raqamli platformalar, interaktiv doskalar orqali o'tkaziladigan o'yinlar bo'lib, zamonaviy o'quv jarayoniga moslashgan.(3. Ustozlar uchun, pedagoglar.org. Texnologiya menejment kommunikatsiya instituti« Pedagogika va psixologiya» kafedraasi o'qituvchisi Eshmamatova SitoraTuyg'un qiziMTS 23-102-gurux talabasi Olimjonova Robiya Alisher qizi).

Ko'plab olimlar didaktik o'yinlarni ta'limiy maqsadga yo'naltirilgan, bolalarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi va intellektual rivojlanishini ta'minlovchi o'yin shakli sifatida talqin etadilar. Xususan, maktabgacha yosh davrida o'yin yetakchi faoliyat turi bo'lib, aynan shu faoliyat orqali bolalarda atrof-muhit haqidagi dastlabki tasavvurlar, tushunchalar va bilimlar shakllanadi. Ilmiy manbalarda didaktik o'yinlarning mohiyati o'yin va ta'lim uyg'unligida namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Didaktik o'yinlar oddiy ermak emas, balki aniq pedagogik vazifalarni hal etishga qaratilgan bo'lib, ular orqali bolalarda fikrlash, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi intellektual-anglash malakalari rivojlantiriladi. Tadqiqotchilar fikricha, didaktik o'yinlar bolalar uchun qiziqarli shaklda tashkil etilgani sababli, bilimlarni o'zlashtirish jarayoni majburiylikdan holibo'ladi va tabiiy ravishda kechadi.

Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga tayangan holda tushuntiriladi, ya'ni bola kattalar yoki tengdoshlar ko'magida o'zining mavjud imkoniyatlaridan yuqoriroq darajadagi bilish faoliyatini amalga oshira oladi. Bu holat didaktik o'yinlar orqali tashkil etilgan ta'lim jarayonida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi, chunki o'yin jarayonida bola mustaqil fikrlashga, muammoni anglashga va uni hal etishga undaladi.(4. TADQIQOTLARjahon ilmiy –metodik jurnali, ISSN:3030-3613).

O'YIN FAOLIYATI HAQIDA OLIMLARNING ILMIY-NAZARIY QARASHLARI

Chet el pedagog olimlaridan P.F.Lesgaft, K.D.Ushinskiy tomonidano'yin nazariyasi ishlab chiqilgan. Ushinskiy bolalar faoliyatida o'yinning mehnat jarayoni asosida paydo bo'lganligini va uni yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi roli, o'yinning bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslab berdi. U “bolalar o'yinlari ko'p asrlik tarixga ega. Insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli

tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan” -deb ta’kidlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat faoliyati o’yin bilan chambarchas bog’liqdir. Bu jarayonda bolada muhim bo’lgan kompetensiyasilar rivojlanadi: bola nima qilish kerakligini, nima uchun qanday qilish kerakligini tushunish, topshiriqlarni bajarishda diqqat bilan kuzdan kechirib chiqish, shartlarni bajarilishini taxlil qilishni o’rganadi. Bolalar o’yinlari o’zining xilma-xilligi, rang-barangligi bilan ajralib turadi. O’yinlar o’z mazmuni va tashkil etilishi bolalarga ta’sir ko’rsatish darajasi, vositalarining turlari hamda kelib chiqishiga ko’ra xilma-xildir. O’yin doimo hayotni aks ettiradi. Shuning uchun uning mazmuni ijtimoiy voqelikda o’zgarib turadi. O’yin maqsadga qaratilgan o’ylangan jarayondir. O’yin jarayoni asosida o’quv faoliyati rivojlanadi. Bola yoshligida qancha ko’p o’ynasa atrof-olam haqida shuncha tushunchalarga ega bo’ladi, o’yin jarayonida bolada dastlabki kompetensiyalar rivojlanadi. (5. Turapova Ra’no Barat qizi Termiz davlat universiteti 2-kurs magistranti, Termiz, O’zbekistone-mail: turapova@terdupi.uz).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘ZBEKISTONDA ILM-FANNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022 yil 30 noyabr | scientists.uz. Nigora Safarova filologiya fanlari nomzodi, dotsent Gulshan Abdullayeva BuDUPI 2-kurs magistranti <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337905>.
2. European science international conference: STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Sobirova Nargiza Esanovna Quvasoy pedagogika kolleji maxsus fan o’qituvchisi.
3. Ustozlar uchun, pedagoglar.org. Texnologiya menejment kommunikatsiya instituti «Pedagogika va psixologiya» kafedrasini o’qituvchisi Eshmamatova Sitora Tuyg’un qizi MTS 23-102-gurux talabasi Olimjonova Robiya Alisher qizi.
4. TADQIQOTLAR jahon ilmiy –metodik jurnali, ISSN:3030-3613.
5. Turapova Ra’no Barat qizi Termiz davlat universiteti 2-kurs magistranti, Termiz, O’zbekistone-mail: turapova@terdupi.uz.